

2026-yil 15-yanvar

Sarhisob - "O'zkimyosanoat" tizimida yoshlar siyosati: aniq natijalar va amaliy qo'llab-quvvatlash

TIZIMDA YOSHLAR SIYOSATI: ANIQ NATIJALAR VA AMALIY QO'LLAB-QUVVATLASH



240 ta

ma'naviy-marifiy tadbirlar tashkil etildi



529 nafar

yosh xodimlar tizimga ishga qabul qilindi



215 ta

sport va sog'lomlashtirish musobaqalari tashkil etildi



100 dan ortiq

yoshlarning murojaat va muammolari ijobiy hal etildi



86 ta

intellektual va innovatsion tadbirlar tashkil etildi



55 nafar

ishsiz toifadagi yoshlarning bandligi ta'minlandi



uzkimyosanoat.uz



[@uzkimyosanoat](https://t.me/uzkimyosanoat)



[uzkimyosanoat.uz](https://www.instagram.com/uzkimyosanoat)



[uzkimyosanoat](https://www.facebook.com/uzkimyosanoat)

2025-yilda davlat rahbari tomonidan belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zkimyosanoat" AJ tizimida 41 ta banddan iborat "Yoshlar dasturi" ishlab chiqilib, Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda tasdiqlandi va izchil amalga oshirilmoqda.

Dastur doirasida joriy yilda:

- 240 ta madaniy-ma'rifiy,
- 215 ta sport-sog'lomlashtirish,
- 86 ta intellektual va innovatsion yo'nalishdagi tadbirlar tashkil etildi.

Shuningdek, tizim korxonalarida o'rtasida Yosh mutaxassislar forumi o'tkazilib, unda tashkil etilgan "Eng yaxshi innovatsion g'oya" tanlovida 250 nafar yosh mutaxassis ishtirok etdi. G'olib va faol ishtirokchilar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Yoshlarning muammo va takliflarini bevosita o'rganish maqsadida "Rahbar va yoshlar" formatdagi ochiq muloqotlar muntazam tashkil etilmoqda. 2025-yil davomida Jamiyat boshqaruv raisi ishtirokida jami 6 ta ochiq uchrashuv o'tkazilib, 100dan ortiq yoshlarning murojaat va muammolari ijobiy hal etildi.

Bundan tashqari, joriy yilda ishga qabul qilingan 1 079 nafar yangi xodimning 529 nafari (49%) yoshlar bo'lib, shundan 87 nafari (16,4%) ayollar hissasiga to'g'ri keladi.

Ijtimoiy mas'uliyat doirasida "O'zkimyosanoat" AJga Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi 5 ta mahalladan ishsiz toifadagi yoshlar manzilli tarzda birlashtirildi. Ularning 22 nafari rasmiy band qilindi, 30 nafari ishga joylashtirildi, 3 nafari harbiy xizmatga jalb etildi.

"O'zkimyosanoat" AJ yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning tashabbuslarini ro'yobga chiqarish va munosib ish o'rnlari yaratish borasidagi ishlarini izchil davom ettiradi.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob-o-zkimyosanoat-tizimida-yoshlar-siyosati-aniq-natij>